



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2023



9 772181 146004



9 772181 687004



1/2023

Ismatullayeva I.I.	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
Mehmonova Y. Ch.	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
Rajabov E.E.	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
Ruziyeva N. X.	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
Xodjayeva D.I., Safarova M.H.	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
Samandarova G.Y.	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremlarning o'ziga xos xususiyatlari	161
Sayfullayev B.N.	Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
To'yboyeva Sh.R.	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
Абдурахманова М.У.	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқиқи	174
Ахмедова М.Х.	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
Вахидова Ф.С.	Дискурда диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеланиши	183
Avezov S.S.	A Corpus-based approach to phraseology research	189
Kobilova A.B.	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazalarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
Nazarova G.P.	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
Raxmatov A.P.	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatik ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida)	215
Sayidova G.Y.	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiati	221
Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
Бозоров Э.А.	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
Мавлонова М.Д.	Инглизча ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлашиш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
Шаринова А.А.	Лугат корпусини яратиш технологияси	251
Hayotova D.Z.	Tushuncha va so'z munosabati	255
Mamatova D.M.	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
Сафаров Ф.С.	Маънодошлик каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
Akhmedova D.B.	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Темирова Дж. Х.	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
Насруллаев Э.Ж.	Алишер Навоий "Ҳикмат ва ибрат достони"нинг ғоявий таҳлили	284
Шаринова Л.Ф.	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадий тасвир	288

TUSHUNCHA VA SO'Z MUNOSABATI

Hayotova Dilafro'z Zoyirovna,

Buxoro davlat universiteti

Nemis tili filologiyasi katta o'qituvchisi

d.z.hayotova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada tilning falsafiy masalalari doirasida tushuncha va uning ifoda vositasi bo'lmish so'z to'g'risida fikr yuritiladi. Fikrlash va uning natijasi o'laroq so'zlash qobiliyati - insonning ikki buyuk yutuq'idir. Inson tafakkurining shakli bo'lmish tushuncha umumiyliги, mavhumliги bilan so'zdan farq qiladi. Tushunchaning vazifasi, o'ziga xosliги predmet, voqea, hodisalar mohiyatini aks ettirishdan iborat. Mantiq fani tushuncha hodisasini o'rganar ekan, uni hosil bo'lish yo'llariga tayanadi. Bular: taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, abstraksiya kabilardir. Bu mantiqiy usullar mantiqiy bilish jarayonida aqliy mehnat jarayonida katta rol o'ynaydi. So'z - inson ongi, yuksak tafakkuri mahsuli bo'lib, u tushunchalar bilan aloqadorlikda. Ular o'zaro dialektik munosabatlarda bo'lganliги bois, tushuncha va so'z o'rtasida nomuvofiqlik ham, muvofiqlik ham bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: tushuncha, so'z, tafakkur, tasavvur, analiz, sintez, obyektiv voqelik, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, lisoniy birlik, antinomiya, konnotativ ma'no.

Аннотация. В статье рассматривается концепт и слово как средство его выражения в рамках философских проблем языка. Способность думать и, как следствие, говорить — два великих достижения человека. Понятие, являющееся формой человеческого мышления, отличается от слова своей общностью и абстрактностью. Функция и своеобразие концепта заключается в отражении сущности предмета, события, явления. Изучая явление логики, наука о логике опирается на пути его формирования. Это: сравнение, анализ, синтез, обобщение, абстракция. Эти логические приемы играют большую роль в процессе умственной работы в процессе логического познания. Слово есть продукт человеческого сознания, высокого мышления, и оно связано с понятиями. Поскольку они находятся в диалектическом отношении, между понятием и словом может быть несоответствие и совместимость

Ключевые слова: понятие, слово, мысль, воображение, анализ, синтез, объективная реальность, сравнение, абстракция, обобщение, языковое единство, антиномия, коннотативное значение.

Abstract. The article discusses the concept and the word as its means of expression within the framework of philosophical issues of language. The ability to think and, as a result, to speak are two great human achievements. A concept, which is a form of human thinking, differs from a word in its generality and abstraction. The function and uniqueness of the concept is to reflect the essence of the subject, event, and events. While studying the phenomenon of logic, the science of logic relies on the ways of its formation. These are: comparison, analysis, synthesis, generalization, abstraction. These logical methods play a major role in the process of mental work in the process of logical cognition. The word is a product of human consciousness, high thinking, and it is related to concepts. Since they are in a dialectical relationship, there can be inconsistency and compatibility between the concept and the word.

Key words: concept, word, thought, imagination, analysis, synthesis, objective reality, comparison, abstraction, generalization, linguistic unity, antinomy, connotative meaning.

Kirish. Inson tushunchalar vositasida fikrlaydi va o'zaro munosabatda aynan shu tushunchalar orqali bir-biri bilan munosabatda bo'ladi. Insonning dunyo va dunyo qonunlarining mohiyatini bilish kundalik ong darajasidagi tushunchalar va ilmiy tushunchalar — kategoriyalar shaklida namoyon bo'ladi. Tushuncha moddiy dunyodagi narsa, hodisalarning umumiy va muhim belgilari hamda xususiyatlarning inson miyasida aks ettirish asosida paydo bo'ladi.

Asosiy qism. Voqelikning inson ongida aks etish jarayoni juda murakkab hodisa bo'lib, bunga hissiy hamda mantiqiy bilim orqali erishiladi. Bular shunday izchil va bosqichma- bosqich hodisalarni voqealarni sezish tushunish idrok etish, ular haqida tasavvur va nihoyat tushuncha hosil qilish jarayoni birin-ketinlik bilan sodir bo'ladi. Masalan, ma'lum filmni ko'rayotganda biz sezgi a'zolari: ko'z va quloq faoliyatiga tayanib qabul qilamiz, ong va xotiramizda mavjud bo'lgan axborot bilan idrok etamiz, uqamiz, tushunamiz.

Shuning mahsuli o'laroq, tafakkurimizda mazkur film haqida ancha mavhum, umumiy bir axborot hosil bo'ladi, bu shu film haqida bizning ongimizdagi tasavvurdir. Bu tasavvur bizning ongimizda manzarali, illuzor - ko'z oldida gavdalanuvchidir. Lekin bu manzaraviy tasavvur hali tushuncha emas. Tushuncha bo'lishi, tushuncha darajasiga ko'tarilish uchun tasavvur munosabatlar tizimiga kirishi, juz'iyliklardan, manzaraviylikdan xoli bo'lishi yuksak umumiy darajasiga ko'tarilishi lozim. Biz bu filmning shakli va mazmuniy tomonlarini o'zga filmlar va shu yo'nalishda axborot beruvchi boshqa manbalar (yozma asarlar, og'zaki rivoyatlar v.h) bilan qiyoslab, o'xshashlik va farqlarni aniqlab, shu filmning boshqa film va axborot manbalari bilan munosabatlarini-umumiylik yoki uyg'unligini hamda ajralib turuvchi jihatlarini (o'xshash va zid tomonlari, belgu xususiyatlari sifatlarini) ongimizda yuksak darajadagi umumiylik bir yaxlitlikka birlashtiramiz. Mana shu umumlashma shu film haqidagi tushunchadir. Bu tushuncha shu film bilan uzviy bog'langan bo'lishi unung nominatsiyasi bu tushunchaning shakl tomoni hamda uni shu nomli hikoya pyesa va spektakldan farqlab turadi. Film tushunchasining mazmun tomoni undan olingan axborot majmuasi, filmning san'at asari sifatida shu axborotni adresatga yetkazish xususiyatlari haqida bilimlarni tashkil etadi. Benazir olim Hamid Ne'matov va Nilufar Shirinova ta'bir bilan aytganda, tushuncha lisoniy bilish jarayonining mahsuli bo'lib, bilish tilning natijalari solib qo'yiladigan zarflarni-idish va qutichalarni eslatadi: xazinada ongda har bir idishlar yuksak tartib bilan kattaroq idishlarga (kategoriyalarga), ular esa maxsus javonlar, u javonlar xonalarga shu darajada qat'iy tartib bilan va qulaylik bilan joylashtiriladiki, kishi so'zlayotgan paytida-hech qiynalmay yuz minglab tushunchalar ichidan kerakligisini vaqt sarflamay topa oladi va qo'llaydi.

Tushunchani hosil qilishda foydalaniladigan yana bir muhim mantiqiy usul bu analiz va sintez. Tafakkurda analiz va sintez mavhum tushunchalar yordamida amalga oshiriladi va bunday tushunchalarni vujudga keltirishda asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bilishda u – taqqoslash, mavhumlashtirish va umumiyashtirish usullari bilan bog'lab qo'llaniladi. Mantiqiy analiz – tadqiq etuvchi obyektni tarkibiy qismlarga ajratib o'rganishdir. Ma'lumki, obyektiv voqelik nihoyatda murakkab bo'lib, u aniq narsa va hodisalardan tashkil topadi. Ular esa o'z navbatida xilma-xil xususiyat va sifatarga ega. Bunday hodisa va narsalarni bilish va ular to'g'risidagi bilimlarimizni chuqurlashtirish uchun bu murakkab narsalarni tarkibiy qism, element hamda bo'laklarga fikran ajratish, ya'ni analiz qilish zarur. Masalan, tergovchi jinoyatning mohiyatiga yetish uchun uni turli xil versiya (taxmin)lar asosida tahlil qilib ko'radi. Jinoyat joyini ko'zdan kechiradi, guvohlar bilan ishlaydi, har bir harakatni o'z fikrlarida qaytadan tiklaydi. Bunda fikriy tahlil amaliy tahlil bilan bog'liq bo'ladi. Lekin analiz fikrlash jarayonida alohida uchramaydi, u har doim sintez bilan birgalikda, u bilan bog'liq holda keladi. Sintez – analiz yordamida butunning bo'laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini yana fikran to'plab, yaxlit holda o'rganish. Bir obyektni o'rganish jarayonida uni avvalo bo'laklarga ajratib, so'ng bu bo'laklarni yana bir butunga to'playmiz. Bunda sintez bevosita amaliy sintez bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Masalan, tergovchi jinoyat sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirayotganda, dastlab turli xil dalillarni guruhlariga ajratadi (tahlil qiladi), so'ng bu ma'lumotlarni yig'ib, sintez qiladi. Sintezlashtirish jarayonida fikr yakkadan umumiyga, qismdan butunga, konkretan abstraktga boradi. Sintez analiz (tahlil)ga asoslanadi va bilishda tushunchalarning vujudga kelishini yakunlaydi. Tushunchaning vujudga kelishi, umuman obyektiv reallikdagi narsa va hodisalar hamda ularning xususiyatlarini tafakkurda aks ettirishning eng muhim xususiyatlaridan biri bu abstraksiyalash, ya'ni mavhumlashtirishdir. Mavhumlashtirish–obyektiv reallikdagi narsa-hodisalarni ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan alohida xususiyatlaridan uzoqlashib, mavhumlashtirish yordamida ularning eng muhim, asosiy va umumiy tomonlarini aniqlash. Olamni ilmiy o'rganishda hodisalarning ichki mohiyatini ochish va ular haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish uchun mavhumlashtirishning ahamiyati juda katta. Mavhumlashtirish bu fikrlash qobiliyatidir. O'quvchini mavhumlashtirishga o'rgatish uning ilm-fanni egallash, konkret hodisalarning umumiy tomonlarini bila olishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy mavhumlashtirish predmetlarning konkret belgilaridan uzoqlashgan holda ularni chuqurroq bilishga xizmat qiladi. Ilm-fan ilmiy abstraksiyalarga asoslanadi. Mavhumlashtirish usuli fikrni umumlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Umumlashtirish–narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi yoki xususiyatlarining bog'lanishlarini fikrda muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasidir. Umumlashtirish – ilmiy bilishning muhim vositalaridan biri. Fikr umumlashtirishda xususiylikdan umumiylikka, turdan jinsga qarab harakat qiladi hamda umumiylik narsa-hodisalarning muqarrar o'xshash va muhim belgilari sifatida olib qaraladi. Demak, tushunchalarni hosil qilishda taqqoslash, analiz-sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish mantiqiy usullari katta ahamiyatga ega ekan.

Hamid Ne'matov va Nilufar Shirinovlarning tushuncha va so'z munosabati borasidagi qarashlari bir muncha bahsli masaladir. Tushunchaning hosil bo'lish bosqichlari, mantiq va psixologiya tushunchalarining tasnifi va o'zaro munosabati masalalari mantiq fanining tadqiq manbai bo'lib tilshunoslarga bevosita aloqador emas. Bizni bevosita qiziqtirgan masala deydi olimlar-tushuncha va so'zning o'zaro munosabatidir.

Shuning mahsuli o'laroq, tafakkurimizda mazkur film haqida ancha mavhum, umumiy bir axborot hosil bo'ladi, bu shu film haqida bizning ongimizdagi tasavvurdir. Bu tasavvur bizning ongimizda manzarali, illuzor - ko'z oldida gavdalanuvchidir. Lekin bu manzaraviy tasavvur hali tushuncha emas. Tushuncha bo'lishi, tushuncha darajasiga ko'tarilish uchun tasavvur munosabatlar tizimiga kirishi, juz'iyliklardan, manzaraviylikdan xoli bo'lishi yuksak umumiy darajasiga ko'tarilishi lozim. Biz bu filmning shakli va mazmuniy tomonlarini o'zga filmlar va shu yo'nalishda axborot beruvchi boshqa manbalar (yozma asarlar, og'zaki rivoyatlar v.h) bilan qiyoslab, o'xshashlik va farqlarni aniqlab, shu filmning boshqa film va axborot manbalari bilan munosabatlarini-umumiylik yoki uyg'unligini hamda ajralib turuvchi jihatlarini (o'xshash va zid tomonlari, belgu xususiyatlari sifatlarini) ongimizda yuksak darajadagi umumiylik bir yaxlitlikka birlashtiramiz. Mana shu umumlashma shu film haqidagi tushunchadir. Bu tushuncha shu film bilan uzviy bog'langan bo'lishi unung nominatsiyasi bu tushunchaning shakl tomoni hamda uni shu nomli hikoya pyesa va spektakldan farqlab turadi. Film tushunchasining mazmun tomoni undan olingan axborot majmuasi, filmning san'at asari sifatida shu axborotni adresatga yetkazish xususiyatlari haqida bilimlarni tashkil etadi. Benazir olim Hamid Ne'matov va Nilufar Shirinova ta'bir bilan aytganda, tushuncha lisoniy bilish jarayonining mahsuli bo'lib, bilish tilning natijalari solib qo'yiladigan zarflarni-idish va qutichalarni eslatadi: xazinada ongda har bir idishlar yuksak tartib bilan kattaroq idishlarga (kategoriyalarga), ular esa maxsus javonlar, u javonlar xonalarga shu darajada qat'iy tartib bilan va qulaylik bilan joylashtiriladiki, kishi so'zlayotgan paytida-hech qiynalmay yuz minglab tushunchalar ichidan kerakligisini vaqt sarflamay topa oladi va qo'llaydi.

Tushunchani hosil qilishda foydalaniladigan yana bir muhim mantiqiy usul bu analiz va sintez. Tafakkurda analiz va sintez mavhum tushunchalar yordamida amalga oshiriladi va bunday tushunchalarni vujudga keltirishda asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bilishda u – taqqoslash, mavhumlashtirish va umumiyashtirish usullari bilan bog'lab qo'llaniladi. Mantiqiy analiz – tadqiq etuvchi obyektini tarkibiy qismlarga ajratib o'rganishdir. Ma'lumki, obyektiv voqelik nihoyatda murakkab bo'lib, u aniq narsa va hodisalardan tashkil topadi. Ular esa o'z navbatida xilma-xil xususiyat va sifatlariga ega. Bunday hodisa va narsalarni bilish va ular to'g'risidagi bilimlarimizni chuqurlashtirish uchun bu murakkab narsalarni tarkibiy qism, element hamda bo'laklarga fikran ajratish, ya'ni analiz qilish zarur. Masalan, tergovchi jinoyatning mohiyatiga yetish uchun uni turli xil versiya (taxmin)lar asosida tahlil qilib ko'radi. Jinoyat joyini ko'zdan kechiradi, guvohlar bilan ishlaydi, har bir harakatni o'z fikrlarida qaytadan tiklaydi. Bunda fikriy tahlil amaliy tahlil bilan bog'liq bo'ladi. Lekin analiz fikrlash jarayonida alohida uchramaydi, u har doim sintez bilan birgalikda, u bilan bog'liq holda keladi. Sintez – analiz yordamida butunning bo'laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini yana fikran to'plab, yaxlit holda o'rganish. Bir obyektini o'rganish jarayonida uni avvalo bo'laklarga ajratib, so'ng bu bo'laklarni yana bir butunga to'playmiz. Bunda sintez bevosita amaliy sintez bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Masalan, tergovchi jinoyat sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirayotganda, dastlab turli xil dalillarni guruhlariga ajratadi (tahlil qiladi), so'ng bu ma'lumotlarni yig'ib, sintez qiladi. Sintezlashtirish jarayonida fikr yakkadan umumiyga, qismdan butunga, konkretan abstraktga boradi. Sintez analiz (tahlil)ga asoslanadi va bilishda tushunchalarning vujudga kelishini yakunlaydi. Tushunchaning vujudga kelishi, umuman obyektiv reallikdagi narsa va hodisalar hamda ularning xususiyatlarini tafakkurda aks ettirishning eng muhim xususiyatlaridan biri bu abstraksiyalash, ya'ni mavhumlashtirishdir. Mavhumlashtirish–obyektiv reallikdagi narsa-hodisalarni ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan alohida xususiyatlaridan uzoqlashtirib, mavhumlashtirish yordamida ularning eng muhim, asosiy va umumiy tomonlarini aniqlash. Olamni ilmiy o'rganishda hodisalarning ichki mohiyatini ochish va ular haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish uchun mavhumlashtirishning ahamiyati juda katta. Mavhumlashtirish bu fikrlash qobiliyatidir. O'quvchini mavhumlashtirishga o'rgatish uning ilm-fanni egallash, konkret hodisalarning umumiy tomonlarini bila olishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy mavhumlashtirish predmetlarning konkret belgilaridan uzoqlashgan holda ularni chuqurroq bilishga xizmat qiladi. Ilm-fan ilmiy abstraksiyalarga asoslanadi. Mavhumlashtirish usuli fikrni umumlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Umumlashtirish–narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi yoki xususiyatlarining bog'lanishlarini fikrda muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasidir. Umumlashtirish – ilmiy bilishning muhim vositalaridan biri. Fikr umumlashtirishda xususiylikdan umumiylikka, turdan jinsga qarab harakat qiladi hamda umumiylik narsa-hodisalarning muqarrar o'xshash va muhim belgilari sifatida olib qaraladi. Demak, tushunchalarni hosil qilishda taqqoslash, analiz-sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish mantiqiy usullari katta ahamiyatga ega ekan.

Hamid Ne'matov va Nilufar Shirinovlarning tushuncha va so'z munosabati borasidagi qarashlari bir muncha bahsli masaladir. Tushunchaning hosil bo'lish bosqichlari, mantiq va psixologiya tushunchalarining tasnifi va o'zaro munosabati masalalari mantiq fanining tadqiq manbai bo'lib tilshunoslarga bevosita aloqador emas. Bizni bevosita qiziqtirgan masala deydi olimlar-tushuncha va so'zning o'zaro munosabatidir.

Bunday xulosaga kelinishiga asosiy sabab, masalaga sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazar bilan yondashilganligidan bo'lsa kerak. Antroposentrik paradigma doirasida esa bu ikki hodisaning bir vaqtning o'zida talqin qilinishi (ya'ni til hodisalarining inson omili bilan birga o'rganilishi) tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramay mualliflarning tushuncha va so'z munosabatiga doir keyingi qarashlari e'tiborga molik.

Maqolada tushuncha va so'z orasidagi izchil aloqa nihoyatda keng masala sifatida baholanadi. Bunga jamiyat, milliylik, voqelik va reallik munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, biz (o'zbeklar) qor tushunchasini bir so'z bilan ataymiz, eskimoslar esa taxminan 10 xil so'z bilan qor turlarini farqlaydi va aksincha, biz omig 50 dan ortiq turlarini alohida-alohida so'zlar bilan farqlaymiz. Eskimoslar tilida "ot" tushunchasini ifodalash uchun so'z bormi yoki yo'qmi, bu masalani hali aniqlash lozim. O'zbek uchun, bir tomondan or, ikkinchi tomondan, *bavtal, biva, avgir, qulun, toy, g'o'nan, do'nan, arg'imoq* (mayli bo'ysunish munosabatlarida turgan bo'lsin) tushunchalarni-yo'qmi? Demak, so'z va uning shakli hamda ma'nolari milliylikiga hech qanday shubha bo'lmaganidek, tushunchaning ham milliylikiga masalasini butun jiddiyat bilan o'rtaga qoyish lozim. Chunki fanda -"tushunchalar baynalminaldir,"- degan aqida haligacha hukmron. Tushuncha nafaqat milliy, balki ma'lum darajada har bir insonda ma'lum ma'noda, ma'lum miqdorda individual tabiatga ega, chunki u insonning bilimi va tajribasi, qolaversa hayoti, faoliyati, tarbiya va madaniyati bilan, o'y-fikrlari-yu odatlari, dunyoqarashi hamda ma'naviy dunyosi bilan aloqadordir. Shu bois, tushunchani rivojlantirish va yuksaltirish, shu orqali nutqni o'stirish bilim va mantiqiy bilishga, tajriba va intilishga bog'liq. Buning barchasi so'z-tushuncha bog'lanishi til-tafakkur bog'lanishidek barqaror, biri ikkinchisini talab etadigan, bir-birisiz mavjud bo'la olmaydigan dialektik birlik ekanligidan dalolat beradi. Shunday yaqin aloqa va bog'lanishda bo'lgan holda so'z tushunchaga, tushuncha so'zga teng emas va ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, so'z ikki tomonlama: tashqi moddiy hamda ichki - mazmun tomonlaridan iborat. Shu tufayli so'zni leksikologiyada mazmun tomonidan, fonetika, morfologiyada ifoda tomondan tekshirishga imkon bor. Tushuncha esa bir tomonlama, u - abstraksiyadan, umumlashtirishdan iborat. Shuning uchun ham tushunchaning tashqi strukturasi o'rganib bo'lmaydi. So'z esa o'zining ma'nosi bilangina tushuncha bilan bog'lanadi. Tushuncha ongimizda faqat mazmun tomondan tizim hosil qiladi, so'z esa semantik sistemaga ham, grammatik, leksik, morfologik, stilistik v.h. doiralarga ham tortiladi. Shu asosda biz so'z va tushuncha munosabatida birinchi antinomiyan (zidlanishni): **"so'z ikki tomonli lisoniy birlik, tushuncha esa bir tomonli bolib, tafakkur birligidir,"**- deb berishimiz mumkin.

Ikkinchidan, so'zlar mustaqil, yordamchi va so'z-gaplarga ajraladi, tushuncha bilan bog'liqlik esa mustaqil so'zlarning bir qismiga olmosh turkumidan tashqari turgan qismiga xosdir. Yordamchi so'zlar, olmoshlar tushuncha bilan bog'lanmagan. Undov, modal, taqlid va taklif-ishora (chononchi, oh, albatta, tiqliq, ma) so'zlarning tushuncha bilan bog'lanligi munozaralidir. Bundan tashqari, tushuncha nafaqat so'z bilan, balki so'z birikmasi va ulaning zanjirlari bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, ayollar kiyimi, "Kelinlar qo'zg'oloni" hikoyasi, "Kelinlar qo'zg'oloni" pyesasi, "Kelinlar qo'zg'oloni" spektakli, "Kelinlar qo'zg'oloni" filmi. Shu asosda so'z va tushuncha munosabatida ikkinchi antinomiyan (ziddiyatni): **"Hamma so'zlar ham tushunchaning shakli emas va tushunchaning shakli faqat so'z ham emas,"**- deb berish mumkin. Shu zidlanishga asos sifatida tushuncha olinganda: "Tushuncha so'z bilan ham (olim), so'zlar qo'shilmasi bilan ham (Abu Nasr Forobiy), so'z birikmasi bilan ham (Muallimi soniy, Sharq Aristoteli) ifodalanadi."- deb berish mumkin. Shuning uchun sof mantiqiy nuqtayi nazardan urg'ochi ot baytal, quali biya, onaning akasi - tog'a ayni bir tushunchaning shakllaridir. Lekin ulani sinonim deb atash mumkin emas, chunki ulardan biri so'z, boshqasi esa so'z birikmasi bo'lib, turli lisoniy sath birliklaridir.

Uchinchidan, tilda ayni bir tushuncha nafaqat turli sath birliklari bilan, baayni bir sathning bir necha birligi bilan berilishi mumkin (sinonimiya chunonchi, *kichik - mayda, o'rganmoq o'zlashtirmoq, o'lmoq-vafot etmoq* va aksincha, ayni bir so'z bir necha tushunchani ifodalashi ham mumkin (omonimiya): ot ism-nom: *otmarkab - ulov*. Bundan tashqari, tilda ya shunday hodisalar mavjudki, ularda so'z- so'z: ma'nosi, forma munosabatlaridagi nomutanosiblik yaqqol ko'rinib turadi. B.A.Plotnikov quyida dalilni keltiradi: "Диалектические соотношение содержания и понятия языковых единиц наблюдается и в случаях эмантосемии, когда одна и же Материальная форма влияет 6 себе противоположными значениями. Так, например, слово «герой» мож относиться к человеку, совершившему боевой или трудовой подвиг и ироническом смысле к человеку, совершившему неблагоприятный поступо (ср. также эмантосемии в словах *задуть*- задуть домснную печь, задуть свечу, разбить *разбить* стакан, но разбить сквер, убрать мусор но убрать елку и т.д."

Shu asosda so'z-tushuncha munosabatlarida uchinni antinomiyan **"ayni bir tushuncha bir necha so'z bilan va bir necha tushncha ayni bir so'z bila ifodalanishi mumkin,"**- deb beriladi.

To'rtinchdan, tushuncha tafakkurning birligi, borliq alohidaliklari va munosabatlaridagi umumiy va muhim tomonlarning ong'dagi in'ikosi bo'lgan holda baholash, unga kimningdir munosabati qo'shimcha (yondosh, hamroh ma'nolari xos emas; u baho ma'nosidan xolidir. So'z esa, aksincha, konnotativ(qo'shimcha uslubiy) ma'no bo'yog'isiz bo'lmaydi. Chunonchi, turq-angor-aft- bashara-YUZ-chehra-jamol-oraz-uzor-ruxsor... sirasida yuz leksemasi bo'yoqdorlik emas, balki neytral bo'yoqlidir. Shu xususiyat asosida biz to'rtinchi antinomiya **"tushuncha uchun qo'shimcha ma'no xos emas, so'z esa qo'shimcha ma'nosiz bo'lolmaydi,"**- deb shakllantirishimiz mumkin.

Qizcha so'ziga e'tibor beraylik. Bunda 2 tushuncha qiz tushunchasi ham "kichraytirish" ma'nosi yoki tushunchasi mavjud, ya'ni "kichkina qiz" tushunchasini beruvchi bir ifoda. Demak, ikki va undan ortiq tushuncha xuddi: shunday holatda birgina so'z bilan ifodalanishi mumkin.

Beshinchidan, tushuncha tarixiy taraqqiyot natijasida o'zgarishi, hatto o'z aksiga o'tishi va bu so'zga ta'sir etmasligi, shuning aksi sifatida so'z tamoman o'zgarib tushunchaga mutlaqo ta'sir etmasligi mumkin. Birinchi holatni biz Yer va Quyosh haqidagi bundan yuz yil oldingi va bugungi tushunchalarning qiyosida ko'rsak, ikkinchi holatni bundan 20 yil oldin keng ishlatildan *aeroport, samolyot, oblast, rayon* so'zlarining *tayyoragoh, tayyora, viloyat, tuman* so'zlari bilan osongina almashinganida ko'ramiz. Shu asosda biz **"so'z o'zgarib, tushuncha o'zgarmasligi va aksincha tushuncha o'zgarib so'z o'zgarmasligi mumkinligi"** haqida beshinchi antinomiya shakllantirishimiz mumkin.

Xulosa. Til-serqirra, nihoyatda keng imkoniyatlarga va sharoitga ega hodisadir. Tushuncha insoniy bilish va tafakkur mahsuli, so'z uning voqelanish shakli hisoblanadi. Insoniyat, jamiyat, madaniyat va ma'naviyat hamisha rivojlanishda ekan, bu ikki unsur ham hamisha rivojlanib, bir-biriga ta'sir etadi, o'zgaradi va yangilanadi.

ADABIYOTLAR:

1. H.Ne'matov, N.Shirinova. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Buxoro-2005. 53-57 b.
2. Safarov.Sh. Pragmalingvistika. Toshkent-2008. 193 b.
3. Xudoyberganova. D. "Fan" nashriyoti, Toshkent-2013.124 b.
- 4..Boltayevich J. E, To'xtayeva M.O.. O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik. BuxDu.Ilmiy axborotnoma 2022-yil 6-son. 63-69 b.
- 5..Boltayevich J.E, Jumayeva G.E.. Xorijiy tilshunoslikda matn tushunchasi va undagi sintaktik-semantik tahlil. BuxDu.Ilmiy axborotnoma 2022-yil 6-son.137-141b.
6. Pirmukhammadovich R. A. Flipped Learning in The Educational Process: Essence, Advantages, Limitations //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – T. 18.
7. Babayev O. The first encounter between Jaloliddin Rumi and Shams Tabrizi // Sentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). – 2023. – T. 27. – №. 27.
8. Zoyirovna K. D. Study of Linguoculturology in Linguistics //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 30. – C. 292-294.
9. Zoyirovna H. D. Studies on the Concept of "Motherland"("Heimat") in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-158.
10. Zoyirovna H. D. Studies on the Concept of "Motherland"("Heimat") in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-158.